

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

7
2023



08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



7491
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Elektron nashr. 406 sahifa, 30-iyul, 2023-yil.

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abdurahmonov Qalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lim, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'ZR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'ZR Tabiat resurslari vaziri o'rinbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Resp. Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'ZR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'ZR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari

Ochilov Farxod, O'ZR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abdurahmanova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasida professori

Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeveva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Imomqulov To'liq Burxonovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'ZR Tabiat resurslari vazirligi,
O'ZR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli
qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Green Economy Transition Strategy for Uzbekistan	6
Raekwon Chung , Chairman, Supervisory Committee for New Climate Innovation Center at TSUE	
Jahon Savdo Tashkilotiga a'zolikning dolzarb masalalari.....	8
Nodira Shotursunova , Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)	
"Yashil iqtisodiyot" dan "yashil taraqqiyot" sari.....	12
Shoyqulov Baxtiyor Bakirovich , t.f.n., dotsent	
Tadbirkorlik faoliyatida yuzaga keladigan risklarni sug'urtalashning mohiyati va xususiyatlari.....	16
Egamov Zoxid Baxtiyarovich , bosh mutaxassisi	
Unleashing the Potential of Human Capital for Green Development: Bridging the Gap between Environmental Sustainability and Skill Development.....	26
Muratova Muzayana , Teacher	
Анализ состояния применения механизма инновационного управления инфраструктурами нефтегазовых предприятиях в условиях глобальной потепление земли.....	34
Кучаров Абдор Сабиринович , профессор; Динара Нурмамад кизи Ишманова , доцент; Тю Константин Геннадьевич , соискатель	
Enhancing Methodology for Developing Professional and Communicative Skills of Future Economists in the Context of Teaching English and Green Economy	39
Nargiza Samandarova Muxammadovna , Teacher	
The Role of Higher Education in Shaping a Sustainable Green Economy.....	47
Ikromov Sayidolim , Teacher	
O'zbekistonda yashil turizmni rivojlantirish istiqbollari.....	54
Rasulova Nigora Yusupovna , kafedra assistenti	
Qishloq hududlarini rivojlantirishda agroturizmning ahamiyati	58
Jontemirova Iroda Ikrom qizi , talaba	
Iqtisodiy rivojlanish yo'lida "Yashil iqtisodiyot" ning o'rni.....	61
Hamroyeva Sevinchbonu Hamroyevna , talaba	
O'zbekistonda yashil iqtisodiyot va yashil byudjetlashtirish tizimiga o'tishning ahamiyati.....	64
Raxmanov M. A. , tayanch doktorant	
Sustainable Globalization: Nurturing a Green Economy in Higher Education.....	68
Tukhtaeva Shakhnoza , Teacher	
Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishni investitsiyalar yordamida oshirish xususiyatlari.....	75
Bauyetdinov Majit Janizagovich , kafedra dotsenti; Djumaniyazov Ubbiniyaz Ismayl uli , tayanch doktoranti	
Qishloq xo'jaligi nisbiy samaradorligini baholash.....	79
Berkinov Bozorboy , iqtisodiyot fanlari doktori, professor; Qulmatova Sayyora Safarovna , PhD; Ruxsatova Rushana O'ktamovna , erkin tadqiqotchisi	
O'zbekiston Respublikasidagi yirik tijorat banklari kreditlash amaliyotining ekonometrik tahlil va natijalari	86
Kaxxarov Ulug'bek Xalmatovich , mustaqil izlanuvchi	
O'zbekistonda eksportni kreditlash mexanizmlarini yanada kengaytirish yo'nalishlari.....	97
G'aniyev Shaxriddin Abduvoxidovich , i. f. d., professor; Qarshiyev Daniyar Eshpulatovich , i. f. d. (PhD)	
Tijorat banklarida iqtisodiy-matematik modellashtirish samaradorligini yanada oshirish usullari.....	102
Raxmanov Mexridin Sindarovich , kafedra dotsent v. b.	
Banklarda moliyaviy resurslarni boshqarishning ayrim rivojlangan mamlakatlar tajribasi.....	106
Ortiqov Uyg'un Davlatovich , kafedra dotsenti, i.f.n.	
Зарубежный опыт в области цифровизации цепочки поставок продуктов питания	115
Марданова Барно Асатуллоевна , докторант	
Environmental culture and building the ecosystem performance: An empirical analysis from Uzbekistan.....	119
Aziz Zikriyoev , PhD	
Kichik biznes subyektlarining eksport salohiyatini oshirishda innovatsiya va raqamlashtirish bo'yicha xorij tajribasi.....	129
Kambarova Sh. M. i.f.b.f.d. PhD	



Xalqaro dividend siyosati tajribalarida "S&P 500 dividend aristocrats" amaliyoti va uni milliy fond bozorida qo'llash imkoniyatlari.....	134
Sherkuziyeva Nasiba Abrorovna , dotsent	
Yirik sanoat korxonalarida innovatsion menejmentni joriy etish asosida mehnat samaradorligini oshirish yo'llari	139
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich , i. f. b. f. d. (PhD), dotsent; Saotaliyeva Nozima Isomiddinovna , talaba	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	147
Norov Akbar Ruzimamatovich	
O'zbekistonda sanoat kooperatsiyasi asosida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonlari tahlili	151
Egamberiyev Shuxrat Satimbayevich , i.f.f.d.(PhD)	
Aholining tadbirkorlik faolligini oshirishda oilaviy tadbirkorlikning roli	158
Xudayarova Maftuna Shavkatovna , tayanch doktorant	
Elektron tijoratni samarali tashkil etishda raqamli platformalarning yaratilish texnologiyasi	164
Karimova Shirin Zoxid qizi , tayanch doktorant	
Tadbirkorlik subyektlarini moliyalashtirish mexanizmini takomillashtirish orqali aholi bandligini ta'minlash	168
Shakirova Nigora Axralovna , kafedra dotsenti v.b.	
Aglomeratsiya iqtisodiyoti – hududiy rivojlanini harakatlantiruvchi omili sifatida	172
Raximbayev Akmal Azatboyevich , mustaqil tadqiqotchi	
Overview of Environmental Management in Uzbekistan: A Comparative Analysis of Protected Areas and Waste Management.....	177
Mamadjonova Sarvinoz Sharifjonovna , PhD	
Obligatsiyalar bozorining paydo bo'lishi va uning iqtisodiyotga kapital jalb qilishdagi ahamiyati	182
Xushvaqov Islombek Muxammadi o'g'li , tayanch doktorant	
Iqtisodiy subyektlarga soliq yukini hisoblashning ahamiyati va zarurati.....	186
Abduturovov Jasurbek Nozimjonovich , mustaqil izlanuvchi	
Muammoli kreditlar va ularni bartaraf etish yo'llari.....	195
Tojiyev Sardor Dilmurod o'g'li	
Yangi O'zbekiston taraqqiyotida sug'urta munosabatlarini amalga oshirishning ahamiyati va zarurligi.....	199
Abdutarapova Dildora Farxodjon qizi , tayanch doktorant	
Assotsiativ qoidalar va bozor savatlarining tahlili	205
Sh. B. Rajabov; Sadinov Aziz Ziyadullayevich , 3 st year doctoral student	
Mamlakatda davlat soliq xizmati organlari soliq ma'muriyatchiligi faoliyati tahlili.....	210
Tashmuxeimedova Yayra , tadqiqotchi	
Exploring the Integration of Management and Marketing Strategies in Higher Education Institutions: Addressing Crucial Gaps for Enhanced Organizational Performance.....	213
Rakhimova Gulnoza , Teacher	
Особенности научной биографии художника Урала Тансыкбаева (на материале эпистолярного наследия).....	218
Искендир Аккуралай Абдиуалиевна , докторант	
Raqamli iqtisodiyot: milliy iqtisodiyot drayveri	222
Kutbitdinova Moxigul Inoyatovna , kafedra dotsenti; Berdiyeva Janonaxon Jahongir qizi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	228
Суюнова Фотима Баходир кизи , базовый докторант	
Таргетирование инфляции в Узбекистане: предпосылки применения и первые итоги	233
Рашидов Рахимжон Искандарович , в.и.о доцента; Якубова Шамшинур Шухратовна , к.э.н., доцент, докторант (DSc)	
O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati va uning barqarorligini ta'minlashda sug'urtaning o'rni	240
Nomozova Qumri Isoyevna , iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent	
Tijorat banklarining investitsion jozibadorligini takomillashtirishning xorijiy davlatlar tajribalari.....	248
Nazarov Qilich Xolmuradovich , kafedra assistenti	
Bank moliyaviy xavfsizligini ta'minlashda huquqiy mexanizmlarning o'rni	255
Akbarov Behzodhon Ulug'bek o'g'li , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklarida muammoli aktivlarni boshqarishning dolzarb masalalari.....	262
Do'sanov Doniyor , magistr	




Tijorat banklarida raqamli texnologiyalarni joriy qilish xususidagi ilmiy-nazariy qarashlar	269
N. N. Ro'ziyev	
Exploring the Potential of Islamic Finance in Uzbekistan.....	277
Sattorova Nasiba G'anijon qizi , Teacher	
O'zbekiston Respublikasida tijorat banklari faoliyatini tartibga solish tizimining zamonaviy holati.....	284
Murodova Dilnoza Choriyevna , PhD	
Kredit mexanizmini metodologik asoslarini takomillashtirish	288
Gadoyev So'hrob Jumakulovich , mustaqil tadqiqotchi	
Korxonalarda raqamli marketing vositalaridan foydalanish xususiyatlari.....	295
M. A. Saparova , talaba	
Приоритетные направления модернизации системы подготовки туристских кадров.....	299
Очилова Хилола Фармоновна , к.э.н., доцент	
Improving the use of competitive strategies in the management of sewing and knitting enterprises during green development	304
Vafoyeva Dilafruz , Teacher	
O'zbekistonda savdo xizmatlari sohasining rivojlanish tendensiyasi va istiqbollari	311
Xojiyev Elshod Yoqub o'g'li , katta o'qituvchisi, PhD	
O'zbekiston Respublikasida aholini ijtimoiy himoya qilishning zamonaviy statistik usullaridagi tahlili	316
Kutbitdinova Muhayyoxon Inoyatovna , tayanch doktorant	
O'zbekiston to'qimachilik sanoatida CRM strategiyalaridan foydalanish yo'llari	323
Xalilova Nafisa Komilovna , magistrant	
Ko'zi o'z shaxslarni ish bilan ta'minlashni qonunchilik vositasida tartibga solishdagi xorijiy tajriba	327
Usmonov Ziyodulla Ulmas o'g'li , tayanch doktorant	
Оптимизации операционной стратегии и повышение экономического потенциала хлопково-текстильных кластеров	334
Джурабаев Отабек Джурабаевич , доцент кафедры	
Необходимость управления активами и пассивами современными банками Узбекистана.....	341
Фаттахова Муниса Абдухамитовна	
Transport logistika xizmatini eksportni takomillashtirishga ta'siri	349
Jumabayeva Akmole Sheraliyevich , magistrant	
Цифровая валюта: возможные последствия вывода из обращения наличных денег	354
Бахромов Мирзаахмад Рустам угли , студент; Абдикаримова Динара Рустамхановна , научный руководитель, д. э. н. (DSc)	
Systematic mapping study of higher education in green development context.....	361
Asqarova Feruza Abdullaevna , Senior Teacher	
O'zbekistonda rekreatsiya turizmini rivojlantirish imkoniyatlari	368
Vayskulov Ramazon Alisher o'g'li , kafedra o'qituvchisi; Shaymanova Nigora Yusupovna , tayanch doktoranti	
Особенности подготовки юных футболистов на этапах начальной подготовки, спортивно – оздоровительном и групп начальной специализации.....	373
Д. К. Исмагилов , кандидат педагогических наук, доцент	
Optimizing Financial Resources Management in Treasury Systems for Sustainable Green Development.....	377
Shodmonkulova Shahlo , PhD student	
Iqtisodiy xavfsizlikning institutsional asoslarini takomillashtirishning xorij davlatlar tajribasi	384
Mamatov Sardor Axmatjonovich , mustaqil tadqiqotchi	
Bank tizimida resurs bazasini mustahkamlash yo'llari.....	390
Voxidov Oybek Rozikovich , mustaqil tadqiqotchisi	
Integrating Career-Oriented Communication Competences in English Language Teaching for Future Specialists in Higher Education Institutions: A Catalyst for Green Economy	398
Rajapov Sulaymon Nuraddin Ugli , Teacher	
Tijorat banklari faoliyatida raqamli texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini baholash istiqbollari	406
Fayziyeva Muyassarzoda Xancharovna , mustaqil izlanuvchi (PhD)	



YIRIK SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION MENEJMENTNI JORIY ETISH ASOSIDA MEHNAT SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI


Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti iqtisodiyot fanlari bo'yicha
falsafa doktori (PhD), dotsent



Saotaliyeva Nozima Isomiddinovna

Geologiya fanlar universiteti talabasi



Annotatsiya: Ushbu maqolada yirik sanoat korxonalarida mehnat samaradorligini oshirishda innovatsion menejment usullarini joriy etish yo'llari o'rganilgan. Yirik sanoat korxonalarida innovatsion menejmentni joriy etish fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning aniq yo'nalish va uslublariga amal qilish, mahsulot sifatini optimallashtirish, ishlab chiqarishning turli darajalarida xodimlarning ijodiy faolligini oshirish, mehnat natijasini baholash, xodimlarda o'z mehnatlarining natijasiga nisbatan moddiy va ma'naviy qiziqishni oshirish, mehnat intizomini mustahkamlash asosida mehnat salohiyatidan foydalanishning natijaviyligini oshirishni ta'minlashdan iborat bo'lgan kompleks tashkiliy-iqtisodiy choralarini ishlab chiqishni talab etadi. Shu masalalarni ushbu maqolada o'rganib chiqilgan va ilmiy-nazariy va amaliy takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: mehnat samaradorligi, innovatsiya, menejment, innovatsion menejment, mehnatni ilmiy tashkil etish, munosib mehnat sharoiti, moddiy rahbatlantirish, tashkiliy-iqtisodiy mexanizm.

Аннотация: В данной статье рассматриваются пути внедрения инновационных методов управления для повышения производительности труда на крупных промышленных предприятиях. Внедрение инновационного менеджмента на крупных промышленных предприятиях заключается в ускорении научно-технического прогресса, следовании четким направлениям и методам организации производства и труда, оптимизации качественной структуры продукции, повышении творческой активности работников различных звеньев производства, оценивать результаты труда, давать работникам материальное удовлетворение по отношению к результатам их труда и требует разработки комплекса организационно-экономических мероприятий, направленных на повышение эффективности использования трудового потенциала на основе повышения нравственной заинтересованности и укрепление трудовой дисциплины. Эти вопросы исследуются в данной статье и вырабатываются научно-теоретические и практические предложения.

Ключевые слова: эффективность труда, инновации, менеджмент, инновационный менеджмент, научная организация труда, достойные условия труда, материальное стимулирование, организационно-экономический механизм.



Abstract: This article discusses ways to introduce innovative management methods to increase labor productivity in large industrial enterprises. The introduction of innovative management at large industrial enterprises is to accelerate scientific and technological progress, follow clear directions and methods for organizing production and labor, optimize the qualitative structure of products, increase the creative activity of workers at various levels of production, evaluate the results of labor, give workers material satisfaction in relation to the results their labor and requires the development of a set of organizational and economic measures aimed at improving the efficiency of using labor potential through increasing moral interest and strengthening labor discipline. These issues are investigated in this article and scientific, theoretical and practical proposals are developed.

Key words: labor efficiency, innovations, management, innovative management, scientific organization of labor, decent working conditions, financial incentives, organizational and economic mechanism.

KIRISH

Innovatsion iqtisodiyotga o'tish sharoitida sanoat korxonalarida mehnat samaradorligini oshirish obyektiv asoslangan jarayon bo'lib, o'z-o'zidan amalga oshmaydi, balki doimiy nazorat va boshqarishni talab etadi. Mehnat samaradorligini oshirish mezon kabi ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan bo'lib, bu maqsad boshqarishning, xususan mehnat samaradorligini oshirishning iqtisodiy ishlab chiqarish maqsadi jonli mehnatdan minimal darajada foydalanib yuqori mehnat natijadorligiga erishish bilan belgilansa, ijtimoiy-iqtisodiy maqsad mehnat jarayonining amal qilishi uchun ijobiy ishlab chiqarish va moddiy-madaniy shart-sharoitlarni ya'ni munosib mehnat munosabatlarini yaratish bilan belgilanadi. Yirik sanoat korxonalarida mehnat samaradorligini oshirish oldiga qo'yilgan maqsadlarga erishishda erishish vositalari tizimi bevosita innovatsion menejment tamoyillari va jamiyat rivojining ma'lum bosqichida xo'jalik mexanizmining ishlash xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. "Innovatsion menejment tamoyillari boshqarish uslublari uchun boshlang'ich asos hisoblanadi va boshqarish usullari sifatida amal qiladi" [1]. Mehnat samaradorligini oshirish maqsadlariga erishish vositalari nafaqat kishilar foydali mehnat faoliyatining ijtimoiy-iqtisodiy va iqtisodiy ishlab chiqarish natijalarini amalga oshirishi, balki natijalarga minimal mehnat va vaqt sarflari yordamida erishishni ta'minlashi ham kerak. Mehnat samaradorligini oshirish maqsadlariga erishish vositalaridan kelib chiqqan holda, mehnat samaradorligini oshirishda innovatsion menejmentni joriy etishning mohiyatiga qisqacha to'xtalamiz. Yirik sanoat korxonalarida innovatsion menejmentni joriy etish fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirish, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etishning aniq yo'nalish va uslublarga amal qilish, mahsulot sifatini optimallashtirish, ishlab chiqarishning turli darajalarida xodimlarning ijodiy faolligini oshirish, mehnat natijasini baholash, xodimlarda o'z mehnatlarining natijasiga nisbatan moddiy va ma'naviy qiziqishni oshirish, mehnat intizomini mustahkamlash asosida mehnat salohiyatidan foydalanishning natijaviyligini oshirishni ta'minlashdan iborat bo'lgan kompleks tashkiliy-iqtisodiy choralardir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O'rganilayotgan mavzu doirasida MDH davlatlari olimlaridan V. V. Adamchuk [2], A. A. Artyomenko [3], A. V. Barysheva [4], V. I. Brylev [5], S. A. Valuyskin [6], O. E. Germanova [7], A. Y. Kibanov [8], M. A. Klimova [9], L. A. Kostin [10], V. V. Novojilov [11], M. Y. Pitkevich [12], G. G. Rudenko [13], O. V. Stakanova [14], S. G. Strumilin [15], L. V. Shamray [16], R. A. Elmurzayeva [17] va boshqalar tomonidan mehnat samaradorligining nazariy va metodologik asoslari, ishlab chiqarishda mehnat samaradorligini baholash, mehnat samaradorligini oshirish omil va zahiralari kabi masalalar ko'rib chiqilgan. Uzoq xorijiy mamlakatlar olimlaridan S. L. Bryu [18], P. Samuelson [19], G. Ford [20] hamda G. Emerson [21] tomonidan ishlab chiqarishda ijtimoiy mehnat munosabatlarining nazariy va amaliy jihatlari, mehnatni tashkil etish, mehnat samaradorligi va motivatsiyasi muammolari chuqur tadqiq etilgan. O'z navbatida mamlakatimiz iqtisodchi olimlarining ishlari ham bu muammoni o'rganishga o'z hissasini qo'shib kelmoqda. Jumladan, ustozimiz "Mehnat iqtisodiyoti" ilmiy maktabi asoschisi akademik Q. X. Abdurahmonov tomonidan mehnat samaradorligini oshirishda mehnatni ilmiy tashkil etish va boshqarish [22], professor G. Q. Abdurahmonova tomonidan kichik biznesda munosib mehnat tamoyillarini joriy etish va samarali boshqarish [23], professor Sh. N. Zaynutdinov tomonidan sanoat korxonalarida mehnatni tashkil etishni [24], professor M. L. Tursunxo'jayev tomonidan sanoat korxonalarida mehnatga haq to'lashni tashkil etishni [25], professor Z. Y. Xudoyberdiyev tomonidan sanoat korxonalarida ishchilar malakasini oshirish va foydalanishni [26], dotsent S. B. G'oyipnazarov tomonidan kichik biznesda mehnatni muhofaza qilishni [27], K. S. Ismaylov tomonidan agrosanoat majmuasida mehnat resurslaridan oqilona foydalanishni [28] keng o'rganilgan. Shu bilan birga bevosita sanoat ishlab chiqarish korxonalarida mehnat samaradorligini oshirishda innovatsion menejmentni joriy etish asosida oshirish bo'yicha tizimli asosda ilmiy va monografik tadqiqotlar yetarlicha amalga oshirilmagan.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Sanoat korxonalarida innovatsion menejmentni joriy etish asosida mehnat samaradorligini oshirish mexanizmini takomillashtirishga oid nazariy bilimlarning shakllanish bosqichlarini tadqiqot qilish jarayonida tizimli tahlil, induksiya-deduksiya, kompleks baholash, guruhlash, mantiqiy va taqqoslama tahlil qilish kabi usullardan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Iqtisodiy choralar boshqaruvning barcha darajalarida mehnat samaradorligini oshirishni ta'minlovchi murakkab iqtisodiy tizim hisoblanib, motivatsiya, adolatlilik, uzluksizlik, rentabellik kabi tamoyillarni o'z ichiga oladi. Masalan, motivatsiya – personal mehnat natijasini oshirishni, uzluksizlik – ishlab chiqarish quvvatlarining darajasi, mavjud asbob-uskunalarining texnik holati va ta'minlanganlik darajasi, texnologik yangilanish, ishlab chiqarish jarayonlarini kompleks mexanizatsiyalash va avtomatlashtirishni nazarda tutadi. Mehnat samaradorligini oshirishning tashkiliy choralari esa rejalashtirish va ilmiylik tamoyilini o'z ichiga olib, mehnatni ilmiy asosda tashkil etish va samarali boshqarishni nazarda tutadi. Bu tamoyillar (tashkiliy-iqtisodiy) yirik sanoat korxonalarida mavjud mehnat samaradorligini oshirish zahira manbalaridan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi tamoyillarini ifoda etib, o'zaro bog'liqlikda mehnat samaradorligini samarali oshirish imkoniyatini kengaytiradi. Tadqiqotimizda har bir omil zahiralardan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy maqsadi, tamoyili, vositalari va samaradorlik ko'rsatkichlari ishlab chiqildi (1-jadval). Quyida ularning harakat mexanizmi va vositalarini ko'rib chiqamiz.

1-jadval: Yirik sanoat korxonalarida zamonaviy boshqaruvni joriy etish asosida mehnat samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy ko'rsatkichlari

Foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi	Tashkiliy-iqtisodiy tamoyillar	Maqsad	Vositalar	Samaradorlik ko'rsatkichi
Mehnatni samarali tashkil qilish asosida mehnat samaradorligini oshirish	Rejalashtirish	Ma'lum jarayonning sodir bo'lishiga oldindan muqobil rejalarni tuzib olish	Istiqbolda rivojlantirishning loyiha va dasturini ishlab chiqish	Iqtisodiy o'sish; Raqobatdoshlik
	Ilmiylik	Mehnatni tashkil etish va boshqarishda fanning sunggi yutuqlarini joriy etish	Xorij va mahalliy sanoat korxonalarda hamda ilmiy tadqiqot institutlardagi mehnatni tashkil etish borasidagi yangilik va yutuqlarni faoliyatga kiritib borish	Boshqaruv samaradorligi; Mehnatdan mamnun bo'lish
Mehnat salohiyatini oshirish asosida mehnat samaradorligini oshirish	Motivatsiya	Xodimlarning mehnat salohiyatidan to'liq foydalanish imkonini beradigan rag'batlantirish tizimini ishlab chiqish va amalga qo'llash	Munosib mehnat sharoitini yaratish; Kadrlar malakasini oshirish; Ijodiy erkinlik	Xavfsiz mehnat sharoiti; Mehnat unumdorligi; Mehnat sig'imi
	Adolatlilik	Xodimlarning individual mehnat natijasini hisobga olgan holda moddiy foydani taqsimlash	Mehnatni rag'batlantirishda personal yondashish	Ijtimoiy-iqtisodiy samaradorlik
Innovatsion texnologiyalar asosida mehnat samaradorligini oshirish	Uzluksizlik	Ishlab chiqarish jarayonidagi beunum vaqt sarfini (nosozliklar, quvvatning pastligi va h.k) yo'qotish	Innovatsion texnologiyalarni faoliyatga joriy etish; Mehnat intizomini mustahkamlash	Ish vaqti samaradorligi; Jonli mehnat tejalishi
	Rentabellik	Faoliyatga chora-tadbirlarni qo'llash asosida iqtisodiy-moliyaviy samarani prognozlash	Resurslardan oqilona foydalanish; Investitsion loyihalardan samarali foydalanish	Iqtisodiy-moliyaviy samaradorlik




Innovatsion texnologiyalar asosida mehnat samaradorligini oshirish – yirik sanoat korxonalarida mehnat samaradorligini ilg'or innovatsion texnologiyalarni faoliyatga keng jalb qilgan holda oshirishni ko'zlaydi. Bunda, faoliyatga yangi ishlab chiqarish quvvatlari va texnologik modernizatsiya ishlarini amalga oshirish uchun faol investitsiya loyihalarini amalga oshirishni, shuning zamirida innovatsion texnologiyalarni hamda zamonaviy bilimlarga ega bo'lgan kadrlarni jalb qilish bilan amalga oshiriladi.

Mehnatni samarali tashkil qilish asosida mehnat samaradorligini oshirish – bu insonning mehnat qilishi bilan bog'liq omil zahiralarni inobatga olib, mehnat samaradorligi oshishiga ta'sir qiluvchi, kadrlar malakasini oshirish, ishni to'g'ri tashkil qilish, resurslardan oqilona foydalanish, xavfsiz mehnat sharoitini yaratishni inobatga oladi. Bunda, kadrlar malakasi, resurslardan to'g'ri foydalanish va samarali boshqaruv asosiy o'ringa ega.

Mehnat salohiyatini oshirish asosida mehnat samaradorligini oshirish – xodimlar o'z mehnat imkoniyatlarini namoyon qilishlari va ulardan samarali foydalanish imkonini beradigan choralardan iboratdir. Bu xodimlarni adolatli rag'batlantirish, ijodiy erkinlik, qulay mehnat sharoitini yaratilishida namoyon bo'ladi.

Yirik sanoat korxonalarida mehnat samaradorligini oshirishda innovatsion menejment mavjud zahiralardan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmining har bir elementi harakatga kelishiga zamin yaratadi. Bunda, mehnatni tashkil qilishdagi (iqtisodiy, tashkiliy, ijtimoiy-psixologik, texnologik) elementlarni (1-rasm) hisobga olish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.



1-rasm: Yirik sanoat korxonalarida mehnat samaradorligini oshirishda innovatsion menejmentni joriy etishni vujudga keltiruvchi elementlar



Tashkiliy elementlar – boshqaruvga zamonaviy boshqaruv uslublarini qo'llash, tartib-intizom va mas'uliyatga asoslanadi. Sanoat korxonasida ishlab chiqarish va mehnatni to'g'ri tashkil qiladigan, xodimlarga qo'yilgan vazifalarni o'z vaqtida sifatli bajarishlari uchun doimiy nazorat, zaruriy boshqaruv qarorlari va ularning ijrosi bo'yicha mas'uliyatni nazarda tutadi.

Iqtisodiy elementlar – sanoat korxonasida xodimlarning mehnat potentsiali va motivatsiyasini oshirish imkonini beradigan iqtisodiy vositalardan iborat bo'ladi. Iqtisodiy elementlarning harakat samaradorligiga: sanoat korxonasining mulkchilik shakli, boshqaruv tizimi, tarmoq sanoat korxonasidagi o'rtacha mehnat haqi kabilar ta'sir ko'rsatadi.

Texnologik elementlar – xodimlarning mehnat sarfini qisqartirish, sifatli mahsulot yaratish, resurslardan oqilona foydalanish imkonini yaratadigan innovatsion texnologiyalarni qo'llashni nazarga tutadi. Texnologik element sanoat korxonasida zamonaviy texnologiyalar bilan ishlay oladigan kadrlar bilan ta'minlash va ishlab chiqarish quvvatlarini oshirishga qaratilgan.

Ijtimoiy-psixologik elementlar – sanoat korxonasida insonning shaxsiy potentsialini namoyon qilishga, o'z ustida ishlashga va jamoada iliq ijtimoiy-psixologik muhitni yaratishga qaratilgan. Ijtimoiy-psixologik element jamoada xodimlarning tashabbusi, ixtidorini aniqlash, yakuniy mehnat natijasini oshirishda motivatsiyadan foydalanish, mehnatdan mamnun bo'lish, rahbariyat va xodimlar o'rtasidagi uzviy do'stona aloqani yaratish imkonini beradi.

Yirik sanoat korxonalarida mehnat samaradorligini oshirishda innovatsion menejmentni joriy etilishi nafaqat mehnat samaradorligini oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmi elementlaridan, balki elementlarni mehnat samaradorligini oshirish vositalari yordamida amalga oshirish kerak. Mehnat samaradorligini oshirish vositalari sifatida quyidagilarni keltirish mumkin, bunda:

- moddiy, mehnat va moliyaviy resurslarni eng zarur sanoat tarmoqlarini rivojlantirish uchun yo'naltirish, fan-texnika yutuqlaridan foydalangan holda sanoat tarmog'ini rivojini rejalashtirish;
- mehnat sifati va samaradorligini oshirish maqsadida sanoat tarmoqlarining barcha jabhalari faoliyatini baholash negizida bo'lgan barcha ko'rsatkichlar tizimini takomillashtirish;
- fan-texnika taraqqiyoti yutuqlarini qo'llash asosida mehnatning texnik qurollanganlik darajasini oshirish, iqtisodiy dastaklar asosida esa mehnatning moddiy asosini yaxshilash;
- mehnat va maishiy xizmat sharoitlariga ta'sir etuvchi iqtisodiy va ijtimoiy choralarni kuchaytirish, mehnat huquqlarining amal qilinishiga erishish;
- mehnatning yakuniy natijasi va ishchilar mehnatini baholash imkonini beradigan tizimdan foydalanish.

Mehnati samaradorligini innovatsion menejment asosida samarali oshirishda personal mehnat natijasi va faoliyat mehnatini baholash tizimini joriy etish muhim ahamiyatga ega. Personal mehnat samaradorligini baholash birinchidan, ishchi-xizmatchilar qanday ishlayotganligi; ikkinchidan, ushbu holatda qanday natijalarga erishilganligi; uchinchidan, buning barchasi sanoat korxonasi faoliyatiga qanday ifodalanishi (namoyon bo'lishi, ta'sir ko'rsatishi) bilan aniqlanadi.

Personal mehnati samaradorligini baholash sanoat korxonasining inson resurslariga nisbatan bajariladigan tashkiliy nazoratining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi va quyidagi maqsadni ko'zlaydi: personal mehnati natijadorligini yaxshilash (mavjud mehnat salohiyatini qo'llash va to'liq foydalanish); ish bilan bog'liq bo'lgan qarorlarni qabul qilishda rahbar va ishchilarni zaruriy axborot bilan ta'minlash.

Yirik sanoat korxonalarida ishchilar mehnatini baholashda xususiy ko'rsatkich hisoblangan personal mehnati faoliyatidagi majburiyat darajasidan foydalanildi. Personal mehnat faoliyatidagi majburiyat darajasi bo'yicha baholash uslubini qo'llashda, ISO 9001:2008 sifatni boshqarish xalqaro standart sertifikatini bilan taqdirlangan "Sho'rtanneftgaz" MChJ misolida, undagi rahbar va ishchi-xodimlar mehnatini tahlil qilamiz hamda asosiy hisoblash ko'rsatkichlarini belgilaymiz. Korxonada personal mehnatini baholashda alohida korxona faoliyati, rahbar va xodimlarga bog'liq holdagi ko'rsatkichlarni inobatga olgan holda sotsiologik so'rovnoma o'tkazish orqali aniqlab topiladi.

Tadqiqotlarimiz natijasida aniqlangan ishchilar mehnatini baholashning majburiyat darajasi yordamida ishonchli va sifatli ishchilar mehnatini baholashda bilish zarur hisoblanadi. Personal majburiyat darajasini aniqlash orqali, ishchilar mehnatini baholash asosida olingan natijalardan to'g'ri foydalanish imkoni paydo bo'ladi va shu asosida personalning egallab turgan lavozimlari bo'yicha majburiyat darajasi bilan ishchilar mehnatini baholash natijasi o'zaro mos ravishdiligini ifodalash mumkin. Shunday qilib, har bir xodimning egallab turgan lavozimida bajaradigan mehnat funksiyasi bo'yicha majburiyat va mas'uliyat darajalarini bilish maqsadida tanlangan korxonada sotsiologik so'rovnoma o'tkazildi va bu korxona personalining majburiyat tasnifi ifodalash imkonini berdi (2-jadval).

Xodimlarning mehnat faoliyatidagi funksiyalariga: rejalashtirish, mehnatni tashkil qilish, nazorat qilish, motivatsiya va o'zaro muvofiqlashtirish (koordinatsiya)ni keltirish mumkin. Majburiyat tasnifi "Sho'rtanneftgaz" MChJ sanoat korxonasidagi ma'muriyat personalining professionallik darajasini ifoda etadi.



2-jadval: “Sho’rtanneftgaz” mas’uliyati cheklangan jamiyati sanoat korxonasi ma’muriyat personalining majburiyat tasnifi

№	Ko'rsatkichlar nomi	Personal boshqaruv xodim (rahbar)lari lavozimi						Xm.m	Mf.b.	Mx.
		Direktor	Bosh muhandis	Moliyaviy ishlar bo'yicha o'rinbosar	Kadrlar bo'limi boshlig'i	Mehnatni muho- faza qilish xizmati boshlig'i	Mehnatni tashkil- la-shtirish boshlig'i			
1.	Xodimlarning mehnat faoliyatidagi asosiy funksiyalari									
1.1.	Rejalashtirish	Xm.m.	Xm.m.	Xm.m.	Mf.b.	Xm.m.	Xm.m.	5	1	0
1.2.	Mehnatni tashkil qilish	Xm.m.	Xm.m.	Xm.m.	Xm.m.	Mf.b.	Xm.m.	5	1	0
1.3.	Nazorat qilish	Xm.m.	Mf.b.	Xm.m.	Xm.m.	Xm.m.	Xm.m.	4	2	0
1.4.	Motivatsiya	Mf.b.	Mf.b.	Xm.m.	Xm.m.	Mf.b.	Xm.m.	3	3	0
1.5.	O'zaro muvofiqlashtirish	Xm.m.	Xm.m.	Mf.b.	Mf.b.	Mf.b.	Xm.m.	3	3	0
2.	Personalning majburiyat darajasi									
2.1.	Yuqori malakali xodim	4	3	4	3	2	5	21		
2.2.	O'rtacha malakali xodim	1	2	1	2	3	0	9		
2.3.	Malakasiz xodim	0	0	0	0	0	0	0		

Bunda: Xm.m. – majburiyat, mas’uliyat va malakaga ega bo’lgan xodim; Mf.b. – mehnat faoliyati davomida bajarishi mumkin bo’lgan mehnat funksiyasi (doimiy holda emas); Mx. – mutlaqo bu mehnat funksiyasini bajarmagan yoki xabardor emas.

Yuqoridagi 2-jadvaldan, korxona bosh direktori doimiy holda mehnat faoliyatida motivatsiya funksiyasini, bosh muhandis nazorat qilish va motivatsiya mehnat funksiyasini, moliyaviy ishlar bo’yicha o’rinbosar mehnatni o’zaro muvofiqlashtirishni, kadrlar bo’limi boshlig’i rejalashtirish va mehnatni o’zaro muvofiqlashtirishni, mehnatni muhofaza qilish xizmati boshlig’i mehnatni tashkil qilish, motivatsiya va mehnatni o’zaro muvofiqlashtirish mehnat funksiyalarini mos ravishda bajarmasligini ko’rish mumkin. Aniqlangan natijalardan qayd qilish mumkin-ki, tahlil qilinayotgan korxonadagi xodimlar mehnat malakasi va majburiyatini to’liq bajarishi 70 foiz, qisman bajarilish holatlari esa 30 foizni tashkil qilmoqda. Korxonada personal boshqaruvi xodimlari mehnat funksiyalarini bajarishda lavozim majburiyati va mas’uliyatini his qilgan holda samarali mehnat faoliyatini olib borishgan yoki boshqacha qilib aytganda, lavozim darajasida salohiyatga ega bo’lgan xodimlar ulushi yuqoriligi ko’rsatmoqda. Mehnat funksiyasini bajarishga mas’ul bo’lgan xodim, o’z lavozimidagi mehnat funksiyasini bajarishi lozim. Bunday holat, xodimlarning lavozim bo’yicha mehnat funksiyalariga kirmaydigan ishlarni qilmaslik va unga javob bermaslikni yuzaga keltiradi hamda pirovardida lavozim mehnat funksiyalaridagi majburiyatlarni to’liq bajarilishini ta’minlab beradi.

Tadqiqotlarimiz natijasida tasniflangan majburiyat tasnifi korxonadagi lavozim mehnat majburiyatini ifoda etadi. Shunday qilib, xodimlar mehnat faoliyatidagi lavozim talablariga javob berishi, shuningdek mavjud lavozim ham personalga mos kelmog’i kerak. Bu albatta korxonaga xodimlarni lavozimga tayinlash va sifatli mehnat funksiyalarini bajarish uchun xodimni qo’shimcha o’qitish, seminar-trening yoki malakasini oshirishga sarflanadigan vaqt hamda moliyaviy xarajatlarni tejash imkonini beradi. Tanlangan sanoat korxonasida xodimlarni qo’shimcha o’qitish va malakasini oshirishga sarflanadigan vaqt hamda moliyaviy sarflarni tejab qolish maqsadida korxonaning muhandis-texnik tsehi xodimlarini mehnat funksiyasi bo’yicha o’tkazilgan so’rovnoma natijasini tahlil qilinganida 56 nafar omilkor, frezerlovchi va tokarchidan iborat bo’lgan xodimlarni qo’shimcha o’qitish uchun sarflanishi lozim bo’lgan 156,8 mln.so’mni va 4480 daqiqa ish vaqtini tejab qolish imkoniyatini berdi.


Personal mehnatini baholash natijalaridan korxona rahbariyati nafaqat personal mehnat sifatini, balki mazkur lavozimga xodimni mos kelishini ham aniqlash imkonini beradi. Xodim o’z majburiyati darajasida yuqori mehnat natijalarini ko’rsatsa, demak mehnat lavozimiga munosib hisoblanadi.



XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan hisoblash ko'rsatkichlaridan foydalanib personal mehnati hisoblab topiladi va ularni lavozim bo'yicha majburiyat darajalarini qiyoslash asosida personal mehnatini aniqlash imkonini beradi. Agar mehnat natijasi lavozim bo'yicha personal majburiyat darajasiga muvofiq kelsa, xodimlar samarali mehnat faoliyatini olib borayotganligini anglatadi, aksincha majburiyat darajasiga mos kelmasa, unda rahbariyat tomonidan bajaradigan funksiyani qayta ko'rib chiqishi, mehnat funksiyasini oshirishi yoki qisqartirishi evaziga mehnat samaradorligini oshirishi mumkin bo'ladi. Shuni qayd etib o'tish mumkinki, majburiyat darajasi asosida ishchilar mehnatini baholash: birinchidan, xodimlarning lavozimga muvofiqlik darajasini ifoda etadi; ikkinchidan, belgilangan mehnat funksiyasini bajarishda xodimning mehnat samaradorligi, uning professional kasb va majburiyat darajalariga ega ekanligini aniqlash; uchinchidan, zamonaviy texnologiyalarni ishlata oladigan kadrlar shakllantirish imkonini beradi. Majburiyat darajasi bo'yicha baholashda agar foydalanilayotgan ko'rsatkichlar obyektiv, hisoblash darajasida ifoda etilgan va asoslangan bo'lsa samarali hisoblanadi. Baholashda majburiyat darajasi uslubidan foydalanib aniqlash amaliy ahamiyatga ega hisoblanadi, chunki ko'rsatkichlar har bir xodim bo'yicha mehnat standartini aniqlamasdan, balki uning mehnat sur'atini namoyon etadi. Bu har qanday holat(vaqt)da ham baholash xodimning mehnatini yoki bajaradigan mehnat funksiyasini korreksiya qilish mumkinligini anglatadi va bu sanoat korxonasida mehnat samaradorligini samarali boshqarish imkoniyatini kengaytiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda shuni qayd qilishimiz mumkinki, yirik sanoat korxonalarida mehnat samaradorligini oshirishning ijtimoiy-iqtisodiy va iqtisodiy ishlab chiqarish maqsadlariga erishishda innovatsion menejmentga amal qilish muhim hisoblanadi (3-rasm).



3-rasm: Yirik sanoat korxonalarda mehnat samaradorligini oshirishga innovatsion menejment ta'siri



Yirik sanoat korxonalari faoliyatida innovatsion menejmentni joriy etish mehnat samaradorligini oshirishda: axborot, boshqaruv, tahliliy va nazorat vazifalarini o'taydi. U butun korxona faoliyatining tarkibiy qismi bo'lib, korxonaning uzoq muddatli strategiyasi talablariga javob beradigan personal mehnat natijasini oshirib borish kabi maqsadga erishishni kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Харгадон Эндрю Управление инновациями. Опыт ведущих компаний – How Breakthroughs Happen. The Surprising Truth About How Companies Innovate. – М.: Вильямс, 2007. – с. 304.
2. Адамчук В.В. Экономика труда: учебник. – М.: Финстатинформ, 1999.
3. Артёменко А.А. Трансформация факторов эффективности труда на российских промышленных предприятиях (на примере предприятий электроэнергетики Саратовской области): дис.канд.экон.наук. – Саратов, 2001.
4. Барышева А.В. Производительность труда в развитых капиталистических странах. – М.: Наука, 1999. – с. 167.
5. Брылев В.И. Резервы роста эффективности труда в новых экономических условиях: дис.док.экон.наук. – М., 2007.
6. Валуysкин С.А. Методические основы проектирования систем оценки эффективности труда управленческого персонала на промышленных предприятиях (на примере работников финансово-экономических служб предприятий легкой промышленности): дис.канд.экон.наук. – Санкт-Петербург, 2004.
7. Германова О.Е. Производительность: экономическое содержание и проблемы измерения. – М.: Наука, 1996. – с. 188.
8. Кибанов А.Я. Мотивация и стимулирование трудовой деятельности. Учебник. – М.: ИНФРА-М, 2009.
9. Климова М.А. Комплексная оценка трудового процесса рабочего (на примере полиграфической промышленности): дис.канд.экон.наук. – М., 2000.
10. Костин Л.А. Производительность труда технический прогресс. – М.: Экономика, 1994.
11. Новожилов В.В. Проблемы измерения затрат и результатов при оптимально планирования. – М.: Наука, 1972.
12. Питкевич М.Ю. Производительность, экономическая эффективность и оплата труда в российской экономике и ее отраслях: дис.канд.экон.наук. – М., 2004.
13. Руденко Г.Г. Экономика труда. Учебник. – М.: Волтерс Клувер, 2011.
14. Стаканова О.В. Социальные факторы эффективности труда рабочих (на примере отраслей машиностроения): дис.канд.экон.наук. – М., 2006.
15. Струмилин С.Г. Общественная производительность труда и методы ее измерения. – М., 1967.
16. Шамрай Л.В. Совершенствование управления производительностью труда на предприятии: дисс.кан.экон.наук. – Волгоград, 2009.
17. Эльмурзаева Р.А. Личностный фактор эффективности труда: дисс.кан.экон.наук. – Томск, 2002.
18. Брю С.Л. Экономикс: принципы, проблемы и политика. т. 2. – М.: Прогресс, 1992.
19. Самуэлсон П. Экономика. – М.: Алгон, 1992.
20. Форд Г. Моя жизнь, мои достижения. – Беларусь, Мин.: Издательство "Попурри", 2015.
21. Эмерсон Г. Двенадцать принципов эффективности. – М.: Экономика, 1992.
22. Abdurahmonov Q. X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot / Darslik. Qayta ishlangan va to'ldirilgan 3-nashri. – T. : Fan, 2019. – 426 b.
23. Abdurahmonova G. Q. Kichik biznesda aholini munosib mehnat tamoyillari asosida ish bilan ta'minlashni takomillashtirish: iqt.fan.dok.diss. – T. 2016.
24. Зайнутдинов Ш.Н. Совершенствование организации труда в условиях ускорения научно-технического прогресса (на материалах промышленности Узбекской ССР): дисс.д-р.экон.наук. – Т. 1988.
25. Турсунхужаев М.Л. Проблемы совершенствования организации оплаты труда работников промышленности (на примере легкой промышленности Узбекистана): дисс.д-р.экон.наук. – Т. 1975.
26. Худойбердиев З.Я. Подготовка рабочих на производстве в условиях рыночной системы хозяйствования (на примере г. Ташкента): дис.канд.экон.наук. – Т. 1995.
27. G'oyipnazarov S. B. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda mehnatni muhofaza qilishning ilmiy asoslarini takomillashtirish: iqt.fan.fal.dok.diss. – T. 2018.
28. Ismaylov K. S. Mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi (Qoraqolpog'iston Respublika qishloq xo'jaligi misolid): iqt.fan.nomz.diss. – T. 2000.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

«Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot» jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027



Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.